



THE EXPRESSION OF OCCASIONAL UNITS IN CHOLPON'S POETRY

Abdurahmonova Sofiya

2nd-year student of Uzbek Language and Literature, Faculty of Languages, Navoi State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478970>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 20th May 2025

Online: 21th May 2025

KEYWORDS

Occasionalism, occasional meaning, occasional units, metaphor.

ABSTRACT

This article discusses the significance of occasional units in depicting the characters of Cho'lpon's poetry, their connection with the spirit of the era, and their social status. The ideas of freedom, independence, patriotism, and national pride — key components of Cho'lpon's poetic worldview — are expressed through these linguistic units.

CHO'LPON SHE'RLARIDAGI OKKAZIONAL BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Abdurahmonova Sofiya

NavDU Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478970>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 20th May 2025

Online: 21th May 2025

KEYWORDS

Okkazionalizm, okkazional ma'no, okkazional birliklar, o'xshatish.

ABSTRACT

Maqolada Cho'lpon she'riyati qahramonlarining siymolarini, ularning davr ruhi bilan bog'liq bo'lgan tasvirini, ijtimoiy holatini aks ettirishda okkazional birliklarning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar aks ettirilgan. Cho'lpon she'riyatining qarashlarida ozodlik, istiqloq, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi yuksak axloqiy-estetik g'oyalar mazkur birliklar orqali ifodalangan.

O'zbek adabiyotida XX asr boshlarida yangi milliy uyg'onish to'lqini boshlanib, bu davrda adabiyot til va poetik tafakkurda chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Ana shu adabiy harakatning peshqadamlaridan biri – **Abdulhamid Cho'lpon** namoybo'lib, uning she'riyati o'z zamonasi uchun yangicha poetik til, obrazlar va tasvirlar namoyon bo'ladi. shaxsiy, **okkazional birliklar** – ya'ni matnda faqat muallif tomonidan taqdim etilgan, individual leksi birliklar – Cho'lponetikasining ajralmas qismi. Cho'lpon o'tgan asrning boshlarida o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib, barmoq vaznida jozibali she'rlar yozgan ijodkordir. Abdulhamid Cho'lpon ijodining g'oyaviy asoslari xalqni ma'rifatli qilish, badiiy dunyoqarashini boyitish, go'zallikka muhabbat uyg'otish kabi yetakchi tamoyillarga tayanadi va ularni inson kamoloti, xalq hayoti va jamiyat ma'naviy yuksalishidan ayri holda tasavvur etish mumkin emas. Cho'lpon she'riyatida okkazional birliklarni ko'p uchatishimiz mumkin.

Lingvistikada okkazional birliklar deganda adabiy tilda mavjud bo'lmagan, lekin muallif tomonidan belgilangan kontekstda kasb va faqat shu kontekstdagi ma'no etuvchi birliklar tushuniladi. Bu birliklar:



- yangi so'zlar (neologizmlar),
- o'zlashtirilgan ma'nodagi iboralar,
- grammatik tuzilmada yangilik,
- poetik sintaksis yuklab bo'lishi mumkin.

Cho'lpon bunday birliklarni o'z poetik tilining ajralmas qismi sifatida yaratgan.

Okkazional birliklar adibning ijod mahsuli hisoblanib, uning asarlarini sodda, mazmunli, buyoqdorlikdan xoli, o'quvchi ongiga tez va oson yetib borishiga yordam beradi. Okkazional birliklardan foydalangan shoirilar so'zlarni tejashga, she'rda takroriy so'zlardan foydalanmaslikka va she'rga estetik ko'rk berishga erishadi. Biz mazkur maqolamizda Abdurahim Cho'lponning "Buloqlar quchog'ida" nomli to'plamidagi she'rlarini va ulardagi okkazional birliklarning xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Men-da ojiz- u muhitning oldida –
Qabring topib ko'zyoshimni tokmakka
Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda
Oq kallalik qora devni sokmakka.

Yuqoridagi misrada shoir "hiddat" so'zidan foydalanadi. Hiddat – *keskinlik, tezlik* kabi ma'nolarni ifodalab kelgan. Mazkur misrada shoir nima demoqchi? Ma'lumotlarga ko'ra, taxtga kelgan xonlarning qahri qattiq bo'lgan, o'zlari xohlagan ish ular uchun to'g'ri hisoblangan. Shoir o'zining keskin so'zlari bilan o'zining tezligi bilan ularga qarshi chiqolmagan. O'z davrining voqealarini chiroyli va betakror jumlar orqali ifodalab berishni maqsad qilgan.

Cho'lpon she'riyatida bu kabi birliklar betakror va ma'lum maqsad asosida foydalangan.

Cho'lpon "Uzalgan qo'l" she'rda okkazional birlikdan quyidagi maqsadda foydalanadi.

Qo'limdan tortmoqchi bo'ldimi?
Shu ketsiz girdobdan qutqarib
Qirg'oqqa otmoqchi bo'ldimi?
Kim o'zi men kabi yo'l ozib
Adashgan yo'lchiga qo'l bergan
Va yurg'un ko'zlarga telmirgan?

Yuqoridagi misrada "yurg'un" okkazional birligini qo'llaydi. Yurg'un – *o'ynoqi, yuguruk* kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shoir kim bu charchagan, o'ynoqi, yuguruk ko'zlarga boqmoqchi bo'lgan degan ma'noni ilgari so'rgan. *Yurg'un* so'zi "O'zbek tilining izohli lug'at"da mavjud emas.

Katta-yu kichikka birdek tanish bo'lgan Cho'lponning "Binafsha" she'rda ham okkazional birliklar qo'llanilgan.

Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,
Nimaga uzoqroq kulmaysan,
Binafsha, shunchalar tortguvchi tusing bor,
Ko'nglimga isriklik to'kmaysan?

Yuqoridagi parchaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, parchada "isriklik" – okkazional birligidan foydalangan. Bu so'zni tahlil qiladigan bo'lsak isrik+lik= isriklik. Bu so'zni izohli lug'atda ma'nosi mavjud emas, adib o'z she'rda bu so'zni "sarxushlik, yoqimli ifor" kabi



ma'nolarda qo'llagan. "Shunchalik chiroyli tusing bor, ko'nglimga yoqimli iforingdan nega to'kmaysan", – deya binafshaga undalma qiladi.

Cho'lponning "Yana oldim sozimni" she'rida "qantargach" okkazional birligini ko'rishimiz mumkin. Bu so'z *bo'sh qoldirmoqda, foydalanmasdan dam bermoq* kabi ma'nolarni ifodalab kelgan.

Bir necha yil qantargach,

Yana oldim sozimni,

Endi aytib yig'lamas

Ko'ngildagi rozimni.

"O'zbek tilining izohli lug'at"ida qaytargich so'zi bo'lib, *o'ziga kelib urilgan to'lqin, nur* va shu kabilarni *qaytaruvchi* yoki *zararsizlantiruvchi* asbob ma'nosini bildiradi. Adib yuqoridagi misrada *qantargach* leksemasidan foydalanmasdan "Bir necha yil foydalanmasdan, Yana oldim qo'lga sozimni" degn fikr Cho'lpon "Qaytish" she'rida yana bir okkazional birlikdan foydalanadi. Foydalanilgan okkazional birliklar misraning ma'nosini oson tushunilishiga va o'quvchida Cho'lpon she'riyatiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Ko'nglimga alam oldim,

Qo'limga qalam oldim,

Yana jinlanmakchiman

Yuqoridagi parchada "jinlanmakchi" okkazional birligiga e'tibor beradigan bo'lsak, u "telbalanmoq" ma'nosida ifodalangan. Adib qo'lga qalam olib telbalardek, o'sha davr adolatsizliklarini yozishga tayyorligini nazarda tutmoqda. Cho'lpon she'riyatida ko'plab sintaktik tajribalar ham mavjud. Ular orasida:

Inversiya: so'z tartibini o' Ishlatish orqali ur'uni ishlab chiqarish (Masalan: "*Yurak bir g'am o'lg'usi o'zda*"));

Ellips: ba'zi so'zlarni tushirib qoldirish orqali ma'noni ishlab chiqarish;

Anaphora va parallel tuzilma lar orqali ohangdorlik kerak.

Shoir milliy mazmun, balki sintaksis orqali ham yangi ifodani ochadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, okkazional birliklar adibning ijodiy ixtirosidir. Cho'lpon she'riyatida qo'llanilgan okkazional birliklar uning she'rlarida samimiyatni, oddiylikni tez ilg'ab olishimizga yordam bergan. Tushunarsiz so'zlarni o'quvchiga sodda va oson yetkazib berishga xizmat qilgan. O'quvchi bu she'rlarni shashti susaymasdan, misralardagi yangi ijod mahsullari ya'ni okkazional birliklar bilan tanishgan xolda, maqroq bilan o'qiydi.

References:

1. Abdulhamid Cho'lpon–Buloqlar quchog'ida , – Toshkent:2023.–92 b.
2. Badiiy til muammolari,–Toshkent:"Inqilobva Adabiyot", 1977.
3. Cho'lpon A. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
4. Xudoyberganova D. Poetik birliklarning lingvistik tabiatiga doir. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.
5. Sultonov X. O'zbek poeziyasida badiiylikning lingvistik asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
6. G'afurov S. O'zbek tilida okkazional birliklarning semantik xususiyatlari. – O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021, №3.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014–2025.